

“TA’LIMDA LIDERLIK” TRENING KURSLARI BOSHLANDI



“TA’LIMDA LIDERLIK” TRENING KURSLARI BOSHLANDI

Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan “MFaktor” ta'lim markazi bilan hamkorlikda 26-fevral – 2-mart kunlari xalq ta'limi uchun “Ta'limda liderlik” mavzusidagi trening-kurslarini tashkil etish belgilangan.

Treningda Xalq ta'limi vaziri o'rinbosarlari, MFaktor, Yuksalish liderlar akademiyasi, “Eduaction”, “Osmondagi bolalar”, “Najot ta'lim” “Asaxiybooks” spikerlari mashg'ulotlar o'tkazishadi.

Shuningdek, treninglarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari D. G'aniyev va R. Kuserbayev ishtirok etishlari ko'zda tutilgan.

Trening mashg'ulotlar 26 fevral kuni, soat 15.00 da “MFaktor” o'quv markazi binosida boshlangan.

Vazirlik tomonidan 27,28 fevral va 1 mart kunlari o'tkaziladigan treninglarda tushlik va kofe-breyk tashkil qilinadi.

Mazkur treningda So'x tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri Behro'z Huseynov ham qatnashmoqda.

A. Avloniy nomidagi institut yotoqxonasida 150 kishilik joylar ajratilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-28 20:23:18